

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUK O'RGANISH ARHITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIIY INVESTITSIYAVIIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi boshqarma boshlig'i i.f.f.d. (PhD), dotsent

Email: shaxri_7700@list.ru

ORCID: 0000-0002-5656-736X

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSh, Xitoy, Singapur, Germaniya va Shvetsiyada hududlarga investitsiyalarni jalb etish yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Davlatlarning investitsiya modellari bozor raqobati, strategik rejalashtirish, institutsional samaradorlik, sanoat klasterlari hamda innovatsion-ekologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. So'nggi yillarda ushbu davlatlarga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) dinamikasi va 2025-yilgi FDI ishonch indeksi ko'rsatkichlari tahlil qilinib, O'zbekiston hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, hududiy rivojlanish, ishonch indeksi, innovatsion iqtisodiyot, sanoat klasterlari, inson kapitali.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ подходов к привлечению инвестиций в регионы в США, Китае, Сингапуре, Германии и Швеции. Инвестиционные модели государств изучались на основе рыночной конкуренции, стратегического планирования, институциональной эффективности, промышленных кластеров и инновационно-экологических подходов. Проанализирована динамика прямых иностранных инвестиций (ПИИ), привлеченных в эти страны в последние годы, и показатели индекса доверия к ПИИ на 2025 год, сделаны практические выводы по повышению инвестиционной привлекательности регионов Узбекистана.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, региональное развитие, индекс доверия, инновационная экономика, промышленные кластеры, человеческий капитал.

Abstract: This article presents a comparative analysis of approaches to attracting investment to regions in the USA, China, Singapore, Germany, and Sweden. The investment models of states were studied based on market competition, strategic planning, institutional efficiency, industrial clusters, and innovative-ecological approaches. The dynamics of foreign direct investment (FDI) attracted to these countries in recent years and the FDI confidence index indicators for 2025 were analyzed, and practical conclusions were drawn regarding increasing the investment attractiveness of Uzbekistan's regions.

Keywords: foreign direct investment, investment attractiveness, regional development, trust index, innovative economy, industrial clusters, human capital.

KIRISH

Yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi hududlarga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy siyosatning strategik yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Global kapital uchun raqobat kuchayib borayotgan sharoitda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi infratuzilma, institutsional muhit, innovatsion salohiyat va investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi. AQSh, Xitoy, Singapur, Germaniya va Shvetsiya bu borada turli boshqaruv va rag'batlantirish modellarini shakllantirgan bo'lib, ularning tajribasi hududiy investitsiya siyosatini qiyosiy o'rganish uchun muhim material beradi [1; 2; 5; 6].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi investitsiyalarni jalb qilishda samarali natijaga erishgan davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish O'zbekiston hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun amaliy asos yaratishi bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi AQSh, Xitoy, Singapur, Germaniya va Shvetsiya tajribalarini qiyosiy tahlil qilish, 2020–2024-yillardagi TTXI dinamikasi va 2025-yilgi FDI ishonch indeksini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston uchun amaliy xulosalarni shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslarini o'rganishda Dunningning OLI paradigmasi egalik, joylashuv va ichkilashtirish ustunliklari orqali xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hududiy joylashuvini izohlashga xizmat qiladi [3]. Porterning "raqobatbardoshlik olmosi" modeli esa hududiy investitsiyaviy jozibadorlikni omil sharoitlari, talab sharoitlari, tegishli tarmoqlar va firma strategiyasi kabi determinantlar orqali tushuntiradi [4].


OECD investitsiya siyosatini baholashda TTXIning nafaqat hajmi, balki uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalariga ham e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi [5]. UNCTAD hisobotida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya bilan bog'liq investitsiyalar xalqaro kapital oqimlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan [6]. O'zbekiston bo'yicha Xolmatov investitsiya muhitini yaxshilashda institutsional islohotlarning ahamiyatini asoslaydi [7]. Kearney FDI Ishonch Indeksi esa yirik investorlarning kelgusi investitsiya qarorlariga doir baholarini muntazam aks ettiruvchi xalqaro manba hisoblanadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, reyting tahlili va tizimli umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil AQSh, Xitoy, Singapur, Germaniya va Shvetsiyaning investitsiya modellarini solishtirishga, dinamik tahlil 2020–2024-yillardagi TTXI oqimlarini baholashga, reyting tahlili esa 2025-yilgi FDI Ishonch Indeksi natijalarini o'rganishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil qilingan mamlakatlarda hududiy investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning umumiy yo'nalishlari institutsional barqarorlik, rivojlangan transport va raqamli infratuzilma, innovatsion salohiyat, inson kapitali hamda investorlar uchun aniq rag'batlantirish mexanizmlariga tayanadi. Biroq ushbu omillarning ustuvorligi va ularni qo'llash usullari mamlakatning boshqaruv modeli, iqtisodiy ixtisoslashuvi va hududiy siyosatiga qarab farqlanadi (1-rasm) [3; 4; 5].



1-rasm. Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishda Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi¹


AQShning hududiy investitsiya modeli bozor raqobati, shtatlarning iqtisodiy tashabbuskorligi va investorlar

1 Manba: Muallif tomonidan [1; 10] manbalari asosida tayyorlangan.



uchun ochiq investitsiya muhitiga tayanadi. Shtat va mahalliy boshqaruv organlari investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy rag'batlar, infratuzilma va hududiy rivojlanish dasturlaridan foydalanadi. SelectUSA ma'lumotlariga ko'ra, shtatlar investorlar uchun o'ziga xos rag'batlantirish paketlarini taklif etadi, federal darajada esa investorlarni axborot va institutsional ko'mak bilan ta'minlash tizimi amal qiladi [10].


AQShga jalb qilingan TTXI oqimlarining 2020–2024-yillardagi o'zgarishi 2-rasmda keltirilgan. Mazkur davr investitsiya oqimlarida keskin tebranishlar kuzatilganini ko'rsatadi (2-rasm) [9].



2-rasm. AQShga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, mlrd. AQSh dollari (2020–2024)²

UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, AQShga jalb qilingan TTXI 2020-yilda 93,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 386,1 mlrd dollarga ko'tarilgan. Keyingi ikki yilda oqimlar 2022-yilda 316,9 mlrd va 2023-yilda 233,1 mlrd dollargacha kamaygan. 2024-yilda esa TTXI 278,8 mlrd dollarga yetib, 2023-yilga nisbatan 19,6 foizga oshgan [9].

Xitoyning investitsiya siyosati davlat strategik rejalashtirishi bilan bozor mexanizmlarini uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi. Maxsus iqtisodiy zonalar, eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosati, yirik infratuzilma loyihalari va texnologik markazlar hududlarning investitsion faolligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan (3-rasm) [6].




3-rasm. Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishda Xitoy tajribasi³

2 Manba: UNCTAD, World Investment Report 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [9].

3 Manba: Muallif tomonidan [6] manbasi asosida tayyorlangan.


Xitoy modelining muhim xususiyati iqtisodiy islohotlarni avval maxsus iqtisodiy zonalarda sinab ko'rish, keyinchalik esa muvaffaqiyatli mexanizmlarni boshqa hududlarga kengaytirishdan iborat. Shenzhen, Zhuhai va Xiamen kabi zonalar eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va xorijiy kapitalni jalb qilish uchun institutsional tajriba maydoni vazifasini bajargan (4-rasm) [6].



4-rasm. Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, mlrd. AQSh dollari (2020–2024)⁴

Xitoyga jalb qilingan TTXI 2020-yildagi 149,3 mlrd dollardan 2021-yilda 181,0 mlrd va 2022-yilda 189,1 mlrd dollargacha oshgan. 2023-yilda ko'rsatkich 163,3 mlrd dollarga, 2024-yilda esa 116,2 mlrd dollarga tushgan. UNCTAD hisob-kitobiga ko'ra, 2024-yildagi oqim 2023-yilga nisbatan 28,8 foizga kamaygan [9].

Singapur modeli resurslar cheklangan sharoitda institutsional samaradorlik, ochiq investitsiya siyosati va strategik boshqaruv orqali yuqori investitsiyaviy jozibadorlikni shakllantirish tajribasi bilan ajralib turadi. Davlat boshqaruvining shaffofligi, investorlar bilan ishlashning markazlashgan tizimi va malakali inson kapitali mazkur modelning asosiy tayanchlari hisoblanadi (5-rasm) [2].




5-rasm. Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishda Singapur tajribasi⁵

4 Manba: UNCTAD, World Investment Report 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [9].

5 Manba: Muallif tomonidan [2] manbasi asosida tayyorlangan.



Singapurga jalb qilingan TTXI 2020-yilda 71,6 mlrd dollarni tashkil etgan, 2021-yilda 131,0 mlrd va 2022-yilda 142,1 mlrd dollarga yetgan. 2023-yilda ko'rsatkich 135,1 mlrd dollargacha pasaygan bo'lsa, 2024-yilda 143,4 mlrd dollarga ko'tarilgan. Bu 2023-yilga nisbatan 6,1 foizlik o'sishni anglatadi (6-rasm) [9].



6-rasm. Singapurga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, mlrd. AQSh dollari (2020–2024)⁶

Germaniya tajribasi federal boshqaruv, sanoat klasterlari va kuchli kichik hamda o'rta biznes tizimining uyg'unligi bilan ajralib turadi. Länder iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim vakolatlarga ega bo'lib, avtomobilsozlik, mashinasozlik va kimyo sanoati kabi tarmoqlarning hududiy ixtisoslashuvi investitsiya loyihalarining sanoat zanjirlariga bog'lanishini kuchaytiradi. Mittelstand tizimi esa hududiy bandlik va ishlab chiqarish barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi (7-rasm) [5].




7-rasm. Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishda Germaniya tajribasi⁷

Shvetsiya tajribasi innovatsion rivojlanish, ekologik barqarorlik va inson kapitaliga sarmoya kiritishni birlashtirgan model sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, qayta tiklanuvchi

⁶ Manba: UNCTAD, World Investment Report 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [9].

⁷ Manba: Muallif tomonidan [5] manbasi asosida tayyorlangan.

energiya va past karbonli yechimlarning rivoji investitsiya muhitining uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qiladi (8-rasm) [5].



8-rasm. Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishda Shvetsiya tajribasi⁸

Qiyosiy tahlil besh mamlakatda investitsiyalarni jalb qilishning boshqaruv usullari turlicha ekanini ko'rsatdi. AQShda hududlararo raqobat, Xitoyda strategik rejalashtirish, Singapurda institutsional samaradorlik, Germaniyada klasterlashuv, Shvetsiyada esa innovatsion va ekologik yo'nalish ustunlik qiladi [1; 2; 5; 6; 10].

Shu bilan birga, barcha modellarda investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit, transport va raqamli infratuzilma, malakali kadrlar hamda innovatsion ekotizim muhim shart sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur holat investitsiya siyosatini hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va boshqaruv imkoniyatlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi (1-jadval) [3; 5; 8].

1-jadval

Tanlangan davlatlarga jalb qilingan TTXI oqimlari, mlrd. AQSh dollari⁹ (2020–2024)

Mamlakat	2020	2021	2022	2023	2024
AQSh	93,4	386,1	316,9	233,1	278,8
Xitoy	149,3	181,0	189,1	163,3	116,2
Singapur	71,6	131,0	142,1	135,1	143,4
Germaniya	64,4	74,2	53,4	52,0	5,7
Shvetsiya	20,6	24,9	52,4	25,0	18,3

2020–2024-yillar ma'lumotlari TTXI oqimlari hajmi va dinamikasi mamlakatlar kesimida sezilarli farq qilishini ko'rsatadi. AQSh, Xitoy va Singapur yirik investitsiya oqimlarini saqlab qolgan bo'lsa, Germaniya va Shvetsiyada yillik ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi yuqoriroq bo'lgan [9].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishonch indeksi (FDI Confidence Index) mamlakatlarning investitsion jozibadorligini, siyosiy va makroiqtisodiy barqarorligini, biznes yuritish qulayligini hamda investorlarning kelgusi uch yil ichida investitsiya kiritish bo'yicha ishonch darajasini baholovchi muhim xalqaro ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur reyting transmilliy kompaniyalar rahbarlari va yirik investorlar fikrlari asosida shakllantirilib, global investitsiya oqimlarining istiqbolli yo'nalishlarini aks ettiradi (2-jadval) [8].

8 Manba: Muallif tomonidan [5] manbasi asosida tayyorlangan.

9 Manba: UNCTAD, World Investment Report 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [9].



2-jadval

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan davlatlarning 2025-yilgi FDI ishonch indeksi bo'yicha o'rni¹⁰

2024-yil reytingdagi o'rni	2025-yil reytingdagi o'rni	Mamlakat	Indeks ko'rsatkichi
1	1	Amerika Qo'shma Shtatlari	2.3848
5	5	Germaniya	2.0154
3	6	Xitoy (Gonkong bilan birga)	1.9734
12	15	Singapur	1.7345
15	17	Shvetsiya	1.6181

2025-yilgi FDI ishonch indeksi bo'yicha tadqiqotda ko'rib chiqilgan davlatlar orasida AQSh 1-o'rin, Germaniya 5-o'rin, Xitoy 6-o'rin, Singapur 15-o'rin va Shvetsiya 17-o'rinni egallagan. 2024-yil bilan taqqoslaganda AQSh va Germaniyaning o'rni o'zgarmagan, Xitoy, Singapur va Shvetsiya esa bir necha pog'ona pastlagan. Natijalar institutsional barqarorlik, bozor salohiyati va uzoq muddatli investitsiya istiqbollari investorlar bahosida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan qiyosiy tahlil AQShning bozor raqobatiga asoslangan modeli, Xitoyning strategik rejalashtirish modeli, Singapurning institutsional samaradorlik modeli, Germaniyaning klasterlashuv modeli va Shvetsiyaning innovatsion-ekologik modeli hududiy investitsiya siyosatini shakllantirishda turli yondashuvlarni ifodalashini ko'rsatdi. Har bir model o'ziga xos bo'lsa-da, barchasida investitsiyalarni hududiy rivojlanish bilan bog'lash, institutsional ishonchni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatni kuchaytirish umumiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalardan kelib chiqib investorlarga beriladigan huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, "bir darcha" xizmatlarini raqamlashtirish va ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, texnoparklar, startap markazlari va venchur moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish, ilmfan va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish, yashil iqtisodiyot hamda raqamli transformatsiya loyihalarini rag'batlantirish muhim. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasidan kelib chiqadigan differensial investitsiya rag'batlari esa hududlararo nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlash va TTXI oqimlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish siyosatini ishlab chiquvchi davlat organlari hamda investitsiya muhitini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun amaliy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bureau of Economic Analysis (BEA). (2025). Foreign Direct Investment in the United States. U.S. Department of Commerce. URL: <https://www.bea.gov/data/intl-trade-investment/foreign-direct-investment-united-states>
2. Economic Development Board Singapore (EDB). (2025). Annual Report 2024/2025. Singapore: EDB. URL: <https://www.edb.gov.sg>
3. Dunning J.H. (1993). Multinational Enterprises and the Global Economy. Wokingham: Addison-Wesley Publishing. 687 p.
4. Porter M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. 855 p.
5. OECD. (2022). FDI Qualities Policy Toolkit. Paris: OECD Publishing. DOI: <https://doi.org/10.1787/7ba74100-en>
6. UNCTAD. (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva: United Nations. URL: <https://unctad.org/wir2023>
7. Xolmatov S.X. (2021). O'zbekistonda investitsiya muhitini takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, № 4. B. 95–112.
8. Kearney. (2025). Foreign Direct Investment Confidence Index 2025. Chicago: Kearney. URL: <https://www.kearney.com/foreign-direct-investment-confidence-index>
9. UNCTAD. (2025). World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. Geneva: United Nations. URL: <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
10. International Trade Administration, U.S. Department of Commerce. (2023). SelectUSA Investor Guide. URL: <https://www.trade.gov/selectusa-investor-guide>

10 Manba: Kearney, Foreign Direct Investment Confidence Index 2025 [8].

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100